



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 324 sahifa,
13-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga matematika darslarida integratsion yondashuvni amalga oshirish	10
Mamadjanova Ma'muraxon Kadirjanovna	
O'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari.....	13
Boltayeva Go'zal Komilovna	
Inkluziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash metodologiyasi	21
D. Sh. Jo'rayeva, J. A. Jovliyev	
Bolalarda leksik-grammatik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda kontekstli texnologiyalardan foydalanish	25
Abdullayeva Yoqutjon Qalandar qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	30
Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi	
O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	35
Aripov Shokirjon Olimovich, Raxmatillayeva Sug'diyona Muhammadjon qizi	
Pedagogik intuitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar	39
Axmedov Jaloliddin Oribovich	
The Impact of AI-Generated English Learning Materials Based on Uzbek Rural Life on the Learning Motivation of Rural Students.....	42
Baxramova Malika Muzaffarovna	
Raqamli kutubxonalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va imkoniyatlari	47
Choriyeva Zarina Anvarbek qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari ...	50
D. Teshaboyev, M. Sotvoldiyeva	
Oliy ta'limda tblt metodik modeli asosida baholash tizimini takomillashtirish	53
Djurayeva Nargiza Kudratillayevna	
Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik etikaning rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	59
Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna	
Uilyam Shekspir tragediyalarining o'zbek adabiyotidagi o'rni.....	62
Ergasheva Mehriyona	
Qizlarning oilaviy kompetensiyasi uchun ijodiy pedagogika: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslash.....	65
G'ayratova Mohidil Zafar qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi	69
Maksetova Nurjamal Kuatovna	
Integrativ ta'lim muhitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish	72
Malikova Xurshida Ikramovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'p uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklari va ularni bartaraf etishda lopedik usullar.....	75
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	78
Muxammadova Ozoda Muzrabovna	
Hayotiy sifat tushunchasini psixologik mazmuni.....	82
N. G. Pulatova	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks yondashuvlari	85
Nazarova Dildora Asatovna, Abdurashidova Feruza Qaxramonovna	
Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchining ko'p qirrali pedagogik faoliyati va uning nazariy asoslari	89
Nazarova Dildora Asatovna, Axmedova Aziza Temurovna	



Xo'ja ahmad Yassaviy e'tiqod tarbiyasi haqida.....	93
<i>Norova Sevara Uyg'un qizi</i>	
Matritsa va uning determinanti mavzusini o'qitish orqali bo'lajak iqtisodchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari.....	97
<i>Nuriddinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich</i>	
Odam anatomiyasi darslarida interfaol va multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari.....	104
<i>Nurmatov Norqobil Jo'rayevich, Qo'chqorova Moxira Dilmurod qizi, Boxodirova Nilufar Ikrom qizi</i>	
AQSh ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari va bugungi kundagi rivojlanishi.....	110
<i>Orishev Jamshid Bahodirovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy ta'limi tajribalari.....	116
<i>Pardayeva Gulbahor Jalg'ashovna</i>	
Kreativ ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati.....	119
<i>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rni.....	122
<i>Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	126
<i>Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna</i>	
Criteria of Scientific Activity Implementation of Physical Culture Education Students.....	133
<i>Sapayev Ruzmat Radjapovich</i>	
O'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	136
<i>Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi</i>	
PIRLS tadqiqotida so'rovnomalarning qamrov doirasida maktab muhiti.....	141
<i>To'qliyeva Matluba Boqiyevna</i>	
Onlayn til o'rganish platformalarining esl o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchi (speaking confidence) ga ta'siri.....	146
<i>Tojiboyeva Shohistaxon, Omonova Nargiza</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning ahamiyati.....	151
<i>Toshpo'latova Sevinch O'ral qizi</i>	
Maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarali uslublari.....	155
<i>Turdiyev Azam Xasanovich</i>	
O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash tizimini tatbiq etish imkoniyatlari.....	158
<i>Turobov Mamarajab Sodiq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	163
<i>Umirzoqova Surayyo Xudoyberdiyevna</i>	
Talabalarda perspektiv tasvir bajarishga oid ko'nikmani shakllantirishda CAD dasturlaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari.....	165
<i>Valiyev A'zamjon Nematovich, Toxirov Sardorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan usullar va vositalar.....	173
<i>Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.....	176
<i>Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Duduqlanishga ega bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks korreksion ishlar tizimi.....	179
<i>Xusanova Nozimaxon Zuxriddin qizi</i>	
Sirdaryo viloyatida tabiat va mehnat jarayonlarining tasviriy san'at orqali estetik va ekologik ifodasi.....	182
<i>Yorlaqova Malika Ahmad qizi</i>	
The Relevance of Artificial Intelligence in Teaching the English Language.....	186
<i>Yusupova Gulnoza Mirzoyevna</i>	
Umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan nutq xususiyatlari.....	189
<i>Zairova Nigora</i>	

Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	193
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Педагогические технологии совершенствования физических качеств как основы здорового образа жизни	197
<i>Журабаев Абдукарим Маматкулович</i>	
Формирование духовно-нравственной компетентности будущих учителей как педагогическая проблема	200
<i>Зокиржонова Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	203
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar	205
<i>Xojametov Ajiniyaz Andriyanovich</i>	
Методика формирования познавательных интересов у младших школьников в процессе выполнения творческих заданий на уроках русского языка	207
<i>Юлдашева Тахмина Бону Гайратовна</i>	
Raqamli ta'lim texnologiyalari asosida ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tinglab tushunishga o'rgatish usullari.....	210
<i>Abdurasulova Guljaxon Nabijon qizi</i>	
Fan va tabiatshunosligi asoslari mashg'ulotlarida tajribalar orqali bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	215
<i>Abdusamatova Nargiza Jamolidinovna, Xudayberganova Muqaddam Abdurashitovna</i>	
Bakteriofaglar tuzilishi va turlari (T-faglar) va ularning mikrobiekotizimdagi o'rni mavzusini o'qitish metodikasi	222
<i>Abdunazarova Zulayxo Sharifqulovna, Xo'janazarov O'ktam Eshtemirovich, Samikova Sevinch Toshtemir qizi</i>	
Bulung'ur doston ijrochiligining musiqiy xususiyatlari va ularni ta'lim jarayonida o'rgatishning pedagogik asoslari	227
<i>Babajanov Baxodir Allaberganovich</i>	
Activation of Students' Learning Activities Using Didactic Games	230
<i>Daminova Munajat Abduvoxobovna</i>	
Bolalar ensiklopediyasi vositasida tarbiyalanuvchilarning atrof-olam haqidagi tasavvurlarini shakllantirishning metodik shart-sharoitlari	234
<i>Davlatova Guljaxon Kamoliddin qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	241
<i>Esanova Ro'shana Qurbonazarovna</i>	
Kreativ tafakkurning texnik muammolarni samarali hal qilishdagi o'rni va ahamiyati	248
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich</i>	
Adabiyot va teatr san'ati vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy xulq-motivlarni shakllantirishda faollik markazlarining didaktik imkoniyatlari.....	253
<i>Inomova Dilnavoz Muzafar qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlari mehnatini huquqiy tartibga solishning xususiyatlari	258
<i>Matekeyeva Bibinaz Mirjan qizi</i>	
Badiiy-estetik qadriyatlar va ularning o'ziga xosliklari.....	264
<i>Ostonova Gulrux Shuxrat qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga sharq allomalarining kitobxonlikka munosabatini tarixiy yondashuv asosida o'rgatishning ijtimoiy-tarixiy, zamonaviy va pedagogik xususiyatlari	268
<i>Parpibayeva Zulayho Rahimjon qizi</i>	
AI-Xorazmiyning ilmiy merosi vositasida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirishning metodologik asoslari.....	272
<i>Qaxxorova Shaxnoza Abduvasit qizi</i>	
Musiqiy-badiiy did tarbiyasining ilmiy nazariy asoslari.....	276
<i>Rayimova Gavhar Karim qizi</i>	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish.....	279
<i>To'laboyeva Iqbolxon Olimjanovna</i>	
Malakaviy amaliyot orqali bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi texnologiyalari....	282
<i>Tohirjonova Hulkaroy Baxodir qizi</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilariga chang cholg'usida Shashmaqom kuylarini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	288
<i>Toshpo'lotova Zulxumor Davlatboy qizi</i>	
Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirishning xususiyatlari	292
<i>Usmonov Sh. F.</i>	
The Formation of Human Capital In Education: A Pedagogical and Economic Analysis	297
<i>Uzoqova Shohida Mirzamurod qizi</i>	
“Птицы во рту” Саманты Швевлин: каннибализм нежности и зооморфный код магического реализма	302
<i>Каримов Зиёахмад Алишер угли</i>	
Формирование профессиональных качеств будущих учителей через активизацию учебной деятельности студентов с использованием дидактических игр в педагогических вузах.....	307
<i>Расулова Исмигуль, Якубова Зухра</i>	
Bolalar adabiyotini rivojlantirishda innovatsion yondashuv	311
<i>Mirzayeva Nigora Bozorovna</i>	
Issues of Developing Communicative Competence in Future Teachers from the Point of View of an Andragogical Approach.....	314
<i>Nishanova Mastura Khafizovna</i>	
Raqamli va innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida adabiy kompetensiyalarni rivojlantirish modeli.....	317
<i>Islomova Xafiza Azamatovna</i>	



KREATIV TAFAKKURNING TEXNIK MUAMMOLARNI SAMARALI HAL QILISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Imanov Baxtiyor Berdiyevich

Termiz davlat pedagogika instituti

Texnologiya va geografiya kafedrası dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya: Mazkur maqolada kreativ tafakkurning texnik muammolarni samarali hal qilishdagi o'rni va ahamiyati ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Kreativ tafakkur muhandislik va texnologik faoliyat jarayonida yuzaga keladigan murakkab muammolarni hal etishda noan'anaviy yondashuv, mustaqil va tanqidiy fikrlash, hamda innovation qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantiruvchi muhim omil sifatida qaraladi. Maqolada texnik ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar, jumladan muammoli o'qitish, loyihaviy faoliyat va STEM yondashuvi asosidagi ta'lim texnologiyalari yoritilgan. Shuningdek, talabalarning intellektual salohiyati, amaliy ko'nikmalari va muhandislik tafakkurini rivojlantirishda kreativ tafakkurning ahamiyati ochib berilgan. Kreativ tafakkurni shakllantirish orqali texnik muammolarga tezkor va samarali yechim topish, innovation g'oyalarni ilgari surish hamda ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: kreativ tafakkur, ijodiy fikrlash, zamonaviy ta'lim, muammoli vaziyatlarni hal qilish, innovation pedagogik yondashuv, mustaqil va tanqidiy fikrlash, ta'lim sifati, pedagogik texnologiyalar, intellektual rivojlanish, noan'anaviy qarorlar qabul qilish, amaliy faoliyat, kompetensiyaviy yondashuv.

Abstract: This article provides a scientific and practical analysis of the role and importance of creative thinking in effectively solving technical problems. Creative thinking is considered a key factor that fosters unconventional approaches, independent and critical thinking, and the ability to make innovative decisions when addressing complex challenges arising in engineering and technological activities. The paper highlights effective methods for developing creative thinking within technical education, including problem-based learning, project-based activities, and STEM-based educational technologies. Furthermore, the importance of creative thinking in enhancing students' intellectual potential, practical skills, and engineering thinking is discussed. The mechanisms for improving the quality of education, generating fast and efficient solutions to technical problems, and promoting innovative ideas through the development of creative thinking are scientifically substantiated.

Key words: creative thinking, creative cognition, modern education, problem-solving in complex situations, innovative pedagogical approach, independent and critical thinking, quality of education, pedagogical technologies, intellectual development, non-standard decision-making, practical activity, competency-based approach.

Аннотация: В данной статье с научно-практической точки зрения анализируются роль и значение креативного мышления в эффективном решении технических задач. Креативное мышление рассматривается как важный фактор, формирующий способность к нестандартному подходу, самостоятельному и критическому мышлению, а также принятию инновационных решений при решении сложных задач, возникающих в процессе инженерной и технологической деятельности. В статье освещаются эффективные методы развития креативного мышления в процессе технического образования, в том числе проблемное обучение, проектная деятельность и образовательные технологии на основе STEM-подхода. Также раскрывается значение креативного мышления в развитии интеллектуального потенциала студентов, их практических навыков и инженерного мышления. Научно обоснованы механизмы повышения качества образования, выработки быстрых и эффективных решений технических задач, а также продвижения инновационных идей посредством формирования креативного мышления.

Ключевые слова: креативное мышление, творческое мышление, современное образование, решение проблемных ситуаций, инновационный педагогический подход, самостоятельное и критическое мышление, качество образования, педагогические технологии, интеллектуальное развитие, принятие нестандартных решений, практическая деятельность, компетентностный подход.



KIRISH

Hozirgi kunda fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi, innovasion jarayonlarning kengayishi hamda raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoiti ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi sifat talablarini qo'yimoqda. Bu esa ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida modernizatsiya qilishni, shuningdek, shaxsning intellektual, ijodiy va texnologik salohiyatini rivojlantirishni ustuvor vazifalar qatoriga olib chiqmoqda.

Zamonaviy ta'lim paradigmasi sharoitida o'quvchilar va talabalarda faqat nazariy bilimlarni shakllantirish emas, balki ularni amaliyotda qo'llay olish, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish hamda noan'anaviy yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda kreativ tafakkur alohida o'rin tutadi.

Kreativ tafakkur - bu talabning mavjud bilim, ko'nikma va tajribalarini yangi, noodatiy vaziyatlarda samarali qo'llay olish, muammolarga yangicha yondashish va innovasion yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini ifodalovchi murakkab kognitiv jarayondir. Ayniqsa, texnik va muhandislik faoliyatida kreativ tafakkur muammolarni samarali hal qilishning asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi.

Texnik muammolar, odatda, ko'p variantli yechimlarga ega bo'lib, ularni hal etishda standart yondashuvlar yetarli samara bermasligi mumkin. Shu nuqtai nazardan, kreativ tafakkur talabalarga muammoni chuqur tahlil qilish, alternativ yechimlarni ishlab chiqish, ularni solishtirish va eng maqbul variantni tanlash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, ularning muhandislik fikrlashini, tadqiqotchilik qobiliyatlarini va innovasion faolligini rivojlantiradi.

Ta'lim amaliyotida muammoli o'qitish texnologiyalari, loyiha va tadqiqot faoliyati, shuningdek, STEM/STEAM yondashuvlardan samarali foydalanish orqali talabalarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Bunday yondashuvlar ta'lim jarayonini faollashtirib, uni amaliyotga yaqinlashtiradi hamda bilimlarning funksional qiymatini oshiradi.

Shuningdek, kreativ tafakkurni texnik muammolarni samarali hal qilishning muhim pedagogik omili sifatida ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, uni rivojlantirishga qaratilgan samarali metod va vositalarni ishlab chiqish bugungi kun pedagogikasi va metodikasi oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativ tafakkur va uning muammolarni hal qilishdagi ahamiyati ko'plab mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Ilmiy tadqiqotlarda kreativ tafakkur shaxsning yangi g'oyalar yaratish, muammolarga noodatiy yondashish hamda samarali yechimlar ishlab chiqish qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

Xorijiy olimlardan biri bo'lgan amerikalik psixolog J. P. Guilford kreativ tafakkurni inson intellektining muhim komponenti sifatida ko'rib chiqib, uni "divergent fikrlash" tushunchasi bilan izohlaydi. Uning fikriga ko'ra, kreativ tafakkur bir muammoni hal etishda turli xil, kutilmagan va samarali g'oyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Guilford kreativ fikrlashning asosiy ko'rsatkichlari sifatida originallik, moslashuvchanlik, ravonlik va tafsilotlilik kabi xususiyatlarni ajratib ko'rsatgan.

Kreativ tafakkur nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan yana bir olim E. Torrance hisoblanadi. U kreativ fikrlashni o'rganish uchun mashhur Torrance kreativ tafakkur testlarini (TTCT) ishlab chiqqan. Ushbu testlar kreativlik darajasini aniqlashda keng qo'llanilib, unda shaxsning yangi g'oyalar yaratish, muammolarga alternativ yechimlar topish va fikrlash jarayonida originallik namoyon etish qobiliyati baholanadi.

Amerikalik olim A. Osborn esa kreativ muammolarni hal qilish jarayonini ilmiy jihatdan asoslab, "Creative Problem Solving" (CPS) modelini ishlab chiqqan. Ushbu modelga ko'ra, muammolarni samarali hal qilish uchun g'oyalarni erkin generatsiya qilish, muammoni qayta tahlil qilish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish jarayoni muhim hisoblanadi. Bu yondashuv ayniqsa texnik va muhandislik sohalarida yangi texnologik yechimlarni yaratishda katta ahamiyatga ega.

Kreativ tafakkur va innovatsion faoliyat o'rtasidagi bog'liqlikni R. Sternberg va T. Lubart ham chuqur o'rganib, kreativlikni shaxsning intellektual qobiliyatlari, motivatsiyasi hamda ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida izohlaydilar. Ularning nazariyasiga ko'ra, kreativ tafakkur insonning murakkab muammolarni tahlil qilish, yangicha strategiyalar ishlab chiqish va innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishida muhim rol o'ynaydi.

Mahalliy olimlar ham kreativ tafakkur muammosini o'rganishga katta e'tibor qaratganlar. Masalan, G.E. Gazibekova o'z tadqiqotlarida kreativ tafakkurning shakllanishida kognitiv, emotsional va motivatsion omillar muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, kreativ tafakkur insonning yangi g'oyalarni yaratish va muammolarni samarali hal qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim psixologik jarayon hisoblanadi.

Shuningdek, o'zbek tadqiqotchisi Z. Hayitboyeva kreativ tafakkurni inson tafakkurining murakkab shakli sifatida talqin qilib, uni muammolarni yangicha yondashuv asosida hal qilish imkonini beruvchi intellektual jarayon sifatida baholaydi. Olimaning fikricha, kreativ tafakkur shaxsning mavjud bilim va tajribalarini yangicha tarzda qayta ishlash orqali innovatsion g'oyalar yaratish jarayonini ta'minlaydi.

Zamonaviy tadqiqotlar ham kreativ tafakkurning muammolarni hal qilishdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Ilmiy ishlarda kreativ muammolarni hal qilishga asoslangan ta'lim metodlari o'quvchilarda moslashuvchan fikrlash, originallik va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishi aniqlangan.

Umuman olganda, ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativ tafakkur texnik va ilmiy muammolarni hal qilishda muhim intellektual vosita hisoblanadi. U insonning muammoga turli nuqtai nazardan qarashi, yangicha g'oyalarni ishlab chiqishi hamda samarali innovatsion yechimlar yaratishiga imkon beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kreativ tafakkurning texnik muammolarni samarali hal qilish jarayonidagi o'rni va ahamiyatini aniqlash maqsadida bir qator nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi muammoni har tomonlama o'rganish, mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish hamda kreativ tafakkur va muammolarni hal qilish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqotning nazariy asosini kreativ tafakkur, innovatsion fikrlash hamda muammolarni hal qilish jarayoniga oid psixologik va pedagogik nazariyalar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida J. Guilford, E. Torrance, R. Sternberg, T. Lubart kabi xorijiy olimlarning kreativlik nazariyalari hamda mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Bu nazariy yondashuvlar kreativ tafakkurning shakllanishi, rivojlanishi va amaliy faoliyatda namoyon bo'lish mexanizmlarini aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- 1. Nazariy tahlil metodi.** Ushbu metod yordamida kreativ tafakkur, muammoli vaziyatlar va texnik muammolarni hal qilishga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar hamda ilmiy tadqiqotlar o'rganildi va tahlil qilindi. Natijada kreativ tafakkurning mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda texnik faoliyatdagi ahamiyati aniqlab berildi.
- 2. Taqqoslash va umumlashtirish metodi.** Mazkur metod orqali turli olimlarning kreativ tafakkurga oid qarashlari solishtirildi hamda umumiy ilmiy xulosalar chiqarildi. Bu usul kreativ fikrlashning asosiy xususiyatlari va muammolarni hal qilish jarayonidagi rolini aniqlashga yordam berdi.
- 3. Kuzatish metodi.** Tadqiqot davomida o'quvchilar va talabalar faoliyati kuzatilib, ularning muammoli vaziyatlarda fikrlash jarayoni, yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati hamda texnik masalalarni hal etishdagi kreativ yondashuvlari tahlil qilindi.
- 4. So'rovnoma va test metodi.** Tadqiqotda respondentlarning kreativ tafakkur darajasini aniqlash hamda ularning muammolarni hal qilish jarayonidagi yondashuvlarini o'rganish maqsadida so'rovnoma va diagnostik testlardan foydalanildi. Ushbu metod yordamida ishtirokchilarning kreativ fikrlash darajasi, g'oyalarni generatsiyasi hamda muammolarga innovatsion yondashuvi aniqlab olindi.
- 5. Statistik tahlil metodi.** Tadqiqot natijalari statistik jihatdan qayta ishlanib, olingan ma'lumotlar umumlashtirildi. Bu metod tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash hamda kreativ tafakkur va muammolarni hal qilish samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini berdi.

Mazkur metodlar majmuasi kreativ tafakkurning texnik muammolarni hal qilish jarayonidagi ahamiyatini kompleks ravishda o'rganish imkonini yaratdi. Tadqiqot metodologiyasi orqali olingan natijalar kreativ fikrlashni rivojlantirish hamda texnik muammolarni samarali hal qilishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijodiy salohiyatga ega talabalar, odatda, yuqori darajadagi intellektual rivojlanish hamda amaliy faoliyatni samarali amalga oshirish qobiliyati bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, har qanday yuqori qobiliyatga ega talaba ham kreativ salohiyatini barcha holatlarda to'liq namoyon etavermasligi kuzatiladi. Bu esa kreativlikni mustaqil psixologik-pedagogik fenomen sifatida chuqur va tizimli tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi hamda uni alohida ilmiy izlanish yo'nalishi sifatida qarashni taqozo etadi. Shu bilan birga, har qanday yuqori qobiliyatga ega talaba ham kreativ salohiyatini barcha holatlarda to'liq namoyon etavermasligi kuzatiladi. Bu esa kreativlikni mustaqil psixologik-pedagogik fenomen sifatida chuqur va tizimli tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi hamda uni alohida ilmiy izlanish yo'nalishi sifatida qarashni taqozo etadi.

Kreativ tafakkurni ilmiy asosda o'rganish borasidagi dastlabki fundamental tadqiqotlar Joy Paul Guilford va Ellis Paul Torrance tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, mazkur olimlar kreativlik fenomenini psixologiya fanining mustaqil tadqiqot ob'yekti sifatida ilmiy muomalaga kiritganlar. J. P. Guilford o'zining intellekt tuzilishiga oid nazariyasi doirasida fikrlash jarayonini ikki asosiy turga - konvergent va divergent fikrlashga ajratadi.



Konvergent fikrlash aniq qo'yilgan muammo doirasida yagona, mantiqiy jihatdan asoslangan va to'g'ri yechimni topishga yo'naltirilgan bo'lsa, divergent fikrlash ochiq tipdagi muammolarni hal qilishda ko'p variantli, original va noan'anaviy g'oyalarni ilgari surish imkonini beradi. Shu jihatdan, divergent fikrlash kreativ tafakkurning asosiy kognitiv mexanizmi sifatida baholanadi.

Ellis Paul Torrance esa kreativlikni empirik jihatdan o'rganish va baholash metodikasini ishlab chiqqan bo'lib, u tomonidan taklif etilgan testlar tizimi shaxsning ijodiy salohiyatini aniqlashda keng qo'llaniladi. Ushbu yondashuvlarda kreativ tafakkurning asosiy ko'rsatkichlari sifatida fikrning ravonligi, moslashuvchanligi, originalligi va detallashtirish darajasi alohida ta'kidlanadi.

Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko'ra, divergent fikrlash nafaqat ijodiy faoliyatning nazariy asosi, balki texnik va amaliy muammolarni hal qilish jarayonida innovasion yechimlar ishlab chiqishning muhim sharti hisoblanadi. Shuningdek, u talabalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni ko'p qirrali tahlil qilish hamda optimal qarorlarni tanlash kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta'lim tizimini tashkil etish va boshqarishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etib, unda talabalarning individual-psixologik xususiyatlari, jumladan, fanlarga bo'lgan qiziqishlari, qobiliyatlar va kasbiy intilishlarini inobatga olish muhim metodologik tamoyil sifatida qaraladi. Bunday yondashuv ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quv faoliyatini differentsiyalash va individuallashtirish orqali har bir talabaning intellektual va ijodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, texnik ta'lim jarayonida talabalarning muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, texnik muammolar yechimini izlashda tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'z-o'ziga ishonch, refleksiya va shaxsiy imkoniyatlarni anglash kabi metakognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Robert Sternberg tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda shaxs ijodkorligini rivojlantirish ko'p omilli jarayon sifatida talqin qilinib, unda tashqi muhit, xususan, pedagogik qo'llab-quvvatlash, ijobiy motivatsiya va rag'batlantirish mexanizmlari hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi nazariy va empirik jihatdan asoslab berilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'lim muhitida ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi shart-sharoitlarni yaratish orqali talabalarning innovasion fikrlash va muammo yechish kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin.

Abraham Maslow kreativlikni insonga xos tabiiy xususiyat sifatida baholab, uning namoyon bo'lishi ijtimoiy muhit va sharoitlarga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Genrich Altshuller kreativlikni ixtirochilik faoliyati bilan bog'lab, texnik muammolarni hal qilishda algoritmlashtirilgan ijodiy yondashuv (TRIZ)ni ilgari surgan.

B. Imanovning xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyada chop etilgan (2025) "STEM asosidagi eksperimentlarning tabiiy hodisalarni ilmiy asosda bashorat qilish qobiliyatini rivojlantirishdagi roli" mavzusida yozilgan materiallarida maktab o'quvchilarida kuzatilgan va kundalik hayotda uchraydigan tabiiy hodisalarning mazmuni va mohiyatini bashorat qilishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun STEM-eksperimentlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish strategiyasi ko'rib chiqilgan.

Texnik ta'lim jarayonida kreativ tafakkur talabalarning kasbiy-kompetensiyaviy salohiyatini rivojlantiruvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirishga, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo'llashga ham xizmat qiladi. Xususan, kreativ tafakkur talabalarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: texnologiya fanlarini o'qitishda yuzaga keladigan texnik muammolarni turlicha fikrlash asosida tahlil qilish, bir nechta muqobil yechimlarni ishlab chiqish, ular orasidan eng maqbul va samarali variantlarini tanlash, shuningdek, yangi konstruktiv va texnologik yechimlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Texnik yo'nalishlarda, ayniqsa, metall materiallarga ishlov berish jarayonida kreativ yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, talabaga muayyan detalni tayyorlash vazifasi berilganda, u kreativ tafakkur asosida ishlov berishning turli texnologik usullarini taqqoslaydi, material tanlashda bir nechta muqobil variantlarni tahlil qiladi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan optimal yechimni asoslab beradi. Bunda vaqt va resurslarni tejashga qaratilgan innovasion usullarni taklif etish orqali talabaning mustaqil fikrlashi va muhandislik yondashuvi yanada rivojlanadi.

Shu tariqa, kreativ tafakkur texnik ta'lim jarayonida talabalarning faqatgina ijodiy qobiliyatini emas, balki ularning tahliliy fikrlashi, qaror qabul qilish madaniyati va amaliy faoliyat samaradorligini ham izchil ravishda takomillashtiradi.

Kreativ tafakkurni baholash jarayonida ilmiy asoslangan qator diagnostik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, divergent fikrlash darajasini aniqlashga qaratilgan testlar, psixologik diagnostika metodikalari hamda shaxsiy anketalar va tizimli kuzatuvlar orqali talabalarning ijodiy salohiyati kompleks tarzda baholanadi. Ushbu vositalar kreativ fikrlashning individual xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi.

Ma'lumki, talabalarning texnik kreativligini rivojlantirish jarayonida maqsadli pedagogik yondashuvlar, xususan, dars jarayonida ochiq va muammoli vaziyatlarni yaratish, tugallanmagan va ko'p variantli yechimga ega topshiriqlarni taqdim etish orqali talabalarning mustaqil fikrlashi rivojlantiriladi. Shuningdek, talabalarni mustaqil texnik muammolarning yechimlarini topshida mustaqil qarorlar qabul qilishga yo'naltirish, ularda savol

qo'yish va muammoni mustaqil ravishda tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur pedagogik yondashuvlarni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish natijasida talabalar shaxsida quyidagi kompetensiyalar shakllanishi kuzatiladi:

- yangi va original g'oyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat qobiliyati rivojlanadi, bunda muammolarga noan'anaviy yondashuv asosida yechim topish ustuvor ahamiyat kasb etadi;
- fanlararo integratsiyani amalga oshirish ko'nikmalari takomillashadi, ya'ni turli sohalarga oid bilimlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni anglash va ularni kompleks ravishda qo'llash imkoniyati kengayadi;
- mustaqil, tanqidiy va refleksiv fikrlash malakalari shakllanib, axborotlarni tahlil qilish, baholash va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyati yuksaladi.

Shu tariqa, mazkur yondashuvlar talabalarning texnik muammolarni g'al qilishdagi intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilib, ularning kasbiy faoliyatdagi kompetensiyalarini oshirishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'lar ekan.

TADQIQOT NATIJALARI VA XULOSALAR

Olib borilgan nazariy tahlil va amaliy tadqiqotlar natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, kreativ tafakkur texnik muammolarni samarali hal qilishning muhim intellektual omili hisoblanadi. U an'anaviy reproduktiv fikrlashdan farqli ravishda muammoga noan'anaviy yondashish, bir nechta muqobil yechimlarni ishlab chiqish va ulardan eng maqbul hamda samarali variantni tanlash imkonini beradi.

Shuningdek, dars jarayonida texnik muammolarning yechimlarini hal qilishda talabalarning kreativ tafakkuriga asoslangan yondashuvlar (muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, keys-stadi, STEM texnologiyalari) dars samaradorlini oshirib, ularda innovasion g'oyalar yaratishga bo'lgan intilish va qobiliyatini rivojlantirishga yordam berar ekan.

Tadqiqot natijalari, kreativ tafakkurni tizimli ravishda rivojlantirish texnologiya fani o'qituvchilari tayyorlash sifati va samaradorligini oshirishda muhim didaktik shartlardan ekanligini kursatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" PF-5847-son Farmoni.
3. Imanov B. Specificity Of Student Creative Activity //The American Journal of Social Science and Education Innovations/2 (10). – 2020. – S. 243-249.
4. Baykov A.A. Metallurgiyaning umumiy asoslari. Gosximtexizdat, Moskva-Leningrad, 1936 yil.
5. Imanov B.B. Lesson and its analysis as factor of increasing the quality of education //European scholar Journal. Available online at//www. scholarzest. com. – 2021. – T. 1. – №. 24. – S. 123-126.
6. Imanov B.B. Student Creativity In Performing Problem-Solving Experiments In Physics Development Through Innovative Technologies //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 05. – S. 521-525.
7. Imanov B., Imanova M. Jamiyat va innovatsiyalar – 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.